Begona ótning tur tarkibi va nomi tuóriligini aniqlash uchun hisobga olish vaqtida har bir begona ót turidan órtacha kattalikdagi gullayotgan 2-3 tasi yulib olinadi va gerbariy qilinadi. Kartochkaga va gerbariy qoóoziga begona ótning nomi dala nomeri va olingan kuni yozilgan bólishi kerak. Begona ótlarni hisobga olish vaqtida tekshiruvchi kishi uning nomini bilolmay qolsa yoki qaysi turga mansubligini dala sharoitida aniqlab bólmasa ham, kartochkaga va gerbariy qoóoziga ularning tartib nomeri, dala nomeri va olingan kuni yozib qóyiladi; laboratoriyada nomi aniqlangandan keyingina nomeri nomi bilan almashtiriladi.

Uchastka tóla tekshirib bólingandan 94icr uning ót bosish darajasiga umumiy balli baho beriladi.

Ekin maydonlaridagi begona ótlarni miqdoriy ólchov usuli bilan hisoblash.

Bu usulning mohiyati shundan iboratki, tekshirilayotgan dala yoki uchastkaga málum sonda muayyan satxli ramkalar qóyiladi yoki 1 gektar maydonning 5-10 joyida sathi 0,25, 0,5 yoki 1 m ga teng bólgan namuna maydonchalari maxsus órtacha yógonlikdagi ip yoki sim boólangan yoóoch (yoki temir) qoziqchalar qoqib ajratiladi, sóngra shu maydonchalardagi begona ótlar sonini sanab chiqib, avval ularning hól vazni va 94icr Quruq vazni tarozida tortib aniqlanadi. Bunday maydonchalar bir-biriga deyarli uxshash uchastkalarda kamroq, uxshash bólmagan uchastkalarda kóporq ajratiladi.

Tekshirish uchun ajratilgan maydonlardan olingan begona ótlar massasi, vazni va hatto tup soni har bir tur bóyicha alohida yoki hammasi birga hisoblanadn.

Hisoblash mandonchalarida begona ótlar turlarga ajratiladi va har bir turning tup soni yozib boriladi. Bir yillik va kóp yillik begona ótlar alohida-alohida boó qilib, sóngra hammasi bitta boó Qilib boólanadi. Unga namuna olingan vaqt, maydoncha, takroriyliigi, dala va hisoblash maydonchalarining nomeri yozilgan

etiketka osib qóyiladi. Etiketkadagi yozuvlar dala jurnali yoki kundalikdagi yozuv bilan bir xil bólishi kerak.

Begona ótlar hul poyasining ogirliigi bevosita dalaning ózida prujinali chuntak tarozida tortib aniqlanadi, bunda sugórib olingan ótning ildizi oldin qirqib tashlanadi. Keyin bu ót namunalari yaxshi qurigandan 95icr yana tortiladi. Yiǵilgan material tóla órganib chiqilgandan 95icr 1 ga erdagi begona ótlarning soni va ikki xil (hul va quruq holdagi) órtacha ogirliigi aniqlanadi. Ekin maydonlaridagi begona ótlar sonini sanash usuli yoki namuna maydonchalari usuli bilan hisoblash

Bu usulga muvofiq tekshirilayotgan uchastkalardan diagonaliga ótib, har bir teng oraliqdan 95icr ramkalar qóyiladi yoki hajmi kamida 0,5 yoki 1m<sup>2</sup> bólgan 5-10 maydoncha ajratiladi, sóngra u erdagi ekinlar va begona ótlar soni sanaladi. Sanab bólgandan 95icr bir maydondagi (1 m<sup>2</sup>) yoki hajmi shuncha keladigan ramkadagi begona ótlarning órtacha soni olinadi va madaniy ekinga nisbatan (ekinlar 100% deb olinadi) protsenti aniqlanadi. Hisoblashning miqdoriy usuli kópincha «namuna maydonchalari» usuli deb ham ataladi.

Begona ótlarni hisobga olishda balli shkala va «namuna maydonchalari» usullarining birga qóllanilishi ayniqsa kartalarga ajratilgan maydonlarda yaxshi natija beradi. Kartaga ajratilgan bunday ekin maydonlarini uzoq vaqt kózatish natijasida ularni ót bosish dinamikasini aniqlashga imkon tuǵiladi. Ekin maydonlarining órtacha ót bosish darajasi va muayyan sath ichidagi turlar soni aniqlangach, shu maydonni ót bosish protsenti hisoblab chiqish mumkin. Yuqorida kórsatib ótilgan hisoblash usullariga asoslanib, kolxoz yoki sovxozlardagi tekshirilayotgan dalalarning har biridagi begona ótlar 95icroel umumiy ruyxatini tuzish mumkin. Bu róyhatda, har bir begona ótning nomidan tashqari, uning 95icroele tipii, rivojlanish fazasi, bóyi. Har bir 95icroel 1 m<sup>2</sup> maydondagi soni kórsatilgan bólishi kerak.

## **QORAQALPOǒISTONDA BAHORGI BUǒDOY HOSILDORLIGIGA EKISH ME'YORI VA MINERAL ÓGITLARNING TÁSIRI**

*Sultanova Z.- q.x.f.d., professor, Sabirova Sh.P.- tayansh doktorant  
Qoraqalpoǒiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalar 95icroelem*

Buǒdoy – er yuzida asosiy don ekinlarning biri. Uning unidan non, konditer, bakaleya maxsulotlari tayorlanadi. Doni baholi kleykovina va oksillarga boy. Buǒdoy somonidan yuqori sifatli qoǒoz, karton, uy-buyimlari, qurilish materiallari, qishloq xójalik mollari uchun em-xashak hisoblanadi. Buǒdoyning yuqori oziqlik xususiyatlari uning donidagi kleykovina miqdori va sifatiga boglik. Kleykovina miqdori, buǒdoyda boshqa donli ekinlarga nisbatan birqancha yuqori, sifati ancha yaxshi. Shuning uchun buǒdoy er sharining kóplagan axolisi uchun asosiy oziq-ovqat maxsuloti hisoblanadi.

Buǒdoy donini etishtirishni kópaytirishda birqancha muammolar bor. Ekin dastlabki rivojlanish davrida sekin ósishi sababli buǒdoyzorlar yovvoyi ótlar

bilan kóp ifloslanadi va gerbucidlar bilan dorilanmaganda va yigishda ósimlik bilan birga órib olinib don massasini ifloslanishini oshiradi.

Bugdoy xosildorligini kópaytirishda mineral ógitlar ayniqsa ahamiyatga ega. Adabiyot málumotlariga qaraganda mineral ógitlar meyorí – tuproqdagi oziqlik moddalar miqdori, ob-havo sharoitlari, ósimliklarning va navning xosil tóplash xususiyatlariga boglik dep kórsatiladi (Imomova R., Azimova M., Vafoeva M., 2015). Shu bilan birga ógitlash, ósimliklarni oziqlandirish qóshimcha poyalarning paydo bólishiga va boshoqlarda mayda donlarning rivojlanishiga olib keladi. Mayda donlar aralashmalarni tashkil etib, toza donlarni ulardan ajratishni talap qiladi.

Bahorgi bugdoy bahorda ekilgani uchun umuman qishqi sovuqlardan zarar kórmaydi va erta bahorda ekilip, kuzgi bugdoy yaxshi qishlamagan maydonlarda ham ekilishi mumkin. Bahorgi bugdoy doni sifati birqancha yuqori. Shuning uchun hamdóstlik mamlakatlarida bahorgi bugdoy kóp eqiladi. Bu ekinni Qoraqalpogiston respublikasida keng tarqalmagan, shu sababli etishtirilgan bahorgi bugdoy doni sifatini yaxshilash dolzarb muammolarning biri xisoblanadi.

Bahorgi bugdoy oziq-ovqat, em-xashak va texnik ahamiyatga ega. Shu sababli yigilgan donni aralashmalardan tozalash yigishdan keyingi asosiy ishlardan biri. Tozalangan don yuqori baholanadi, sababi uning sifati yaxshilanadi.

Bahorgi bugdoy xaroratni butun ósish davriga kamroq talab qiladi. Chunki uning ósish davri qisqa, órtacha 100-110 kunning tashkil qiladi va bazi bir ertapishar navlar 85-95 kunda ham pishib etiladi (Boboev S., Bahodirov U., Qarshiev A., Misirov Sh., 2010). Bahorgi bugdoy tez pishar bólganligi uchun erta ekilganda, qishda va erta bahorda tóplangan namlikdan yaxshi foydalanadi. Bahorgi bugdoy erta bahorda yoki fevral oyining ikkinchi yarmida mart oyi boshlarida ekilishi kerak. Uruglarni sifatli past bólgan vaqtda va sharoitiga qarab urugni ekish meyorí malum miqdorda oshiriladi. Uruglar ekish vaqtida 4-6 sm, chuqurlikga ekiladi.

Bahorgi bugdoyni parvarish qilish boranalash, oziqlantirish, begona ótlarga, kasalliklarga va zararkunandalarga qarshi kurash va sugoriladigan ehlarda sugorishdan iborat.

Xosilni kechiktirmay qisqa muddatlarda yigib olish kerak. Aks xolda bugdoy uruglarini tókilib ketishi mumkin. Shu sababli donning mum pishish davrining boshlarida bugdoyni yigishga kirishiladi.

Don quritgich texnikasini yaratishni takomillashib, rivojlanib borishi natijasida, jamoa, davlat va boshqa xójaliklarga don quritgichlarning har xil turi qurilgan yoki tayyor holda keltiriladi.

Donlarning asosiy sifat kórsatkichlariga ularning yangiligi (rangi, támi, hidi), namligi, katta-kichikligi, ifloslanganlik darajasi, zararkunandalar bilan zararlanganligi yoki zararlanmaganligi, don kesimining shishasimonligi, gul póstlogining miqdori va boshqalar kiradi. Don asosan saqlashga va qayta ishlashga málum hajmda (partiya) keltiriladi. Don massalari tashqi kórinishi va sifat kórsatkichlari bóyicha bir xil bólishi talab etiladi.

Don va don mahsulotlarini (un, yorma, omuxta em) saqlash boshqa kópina tovar mahsulotlari singari murakkab va mas'uliyatli bólib, katta miqdorda moddiy-texnikaviy bazani talab etadi.

Don va don mahsulotlari uyumining fiziologik va fizik-kimyoviy xususiyatlari uni saqlashda qiyinchiliklar tuǵdiradi (Voblikov Ye. M., 2003). Don tirik organizm bólib, don massasida turli hayotiy jarayonlar kechadi. Bu jarayonlarning intensivligi atrof-muhit sharoitlariga boǵliq.

Yiǵilgan bahorgi buǵdoy tarkibida don va yovvoyi aralashmalar kóp bólishi sababli ularni tozalash talab etiladi, sababi ularga qoyilgan standart talablari ancha yuqori (Butkovskiy V. A., 2009).

Donlarda oqsillar miqdori ularning oziqaviy qiymatini aniqlovchi asosiy kórsatkichlardan biri hisoblanadi. Buǵdoy donidagi oqsil miqdori ulardagi kleykovinaning miqdori va sifatiga, shuningdek shishasimonligiga kóp jihatidan boǵliq bóladir. Umuman olganda, buǵdoylarda oqsil miqdori un ishlab chiqarishga yaroqliligi va uning nonboplik xususiyatlarini ifodalovchi asosiy kórsatkichlardan biridir.

#### **Paydalangan adabiyotlar:**

1. Boboev S., Bahodirov U., Qarshiev A., Misirov SH. Iqlimning don sifatiga tasiri // Agroilm. – 2010, №2.- B. 23.
2. Butkovskiy V. A. Texnologii zernopererabativayushix proizvodstv.- M.: Integraf servis,- 2009 – S. 402.
3. Voblikov Ye. M. Texnologiya xraneniya zerna: uchebnyy dlya VUZov /Pod red. Ye. M. Voblikova.- SPb: Izdatel'stvo "Lań", 2003.- S. 412.
4. Imomova R., Azimova M., Vafoeva M., Yodgorov N., Kurbonazarov M., Uzoqov F. Mineral ógítlarning don sifati va hosildorligiga tásiri // Agroilm. – Tashkent, 2015. - № 4. – S. 24.

#### **“QORAQALPOǵISTON SHAROITIDA DUKKAKLI DON EKINLARI (MOSH-(Phaseolus aureus Pip) ENTOMOFAUNASINI YRGANISHNING AHAMIYATI**

**Sadikova M.R., Shamuratova N.G.**

#### **Qoraqalpoǵiston qishloq xýjaligi va agrotexnologiyalar 97icroelem**

**Annotaciya:** V etom stat'e izucheno vidy vrediteley Bobovix zernovix kul'tur v nashey Respublike.

**Klyuchevie slova:** Bobovix zernovix kul'tur, vrednosnaya entomofauna, vrediteli, polujestokriye, cheshuekriye. Pryamokriye.

**Kirish.** Dunyo qishloq xwjaligining asosiy tarmoǵi hisoblangan dukkakli don ekinlari inson uchun eng zarur oqsil, yoǵ va uglevodlarga boy bwlganligi sababli, inson organizmi tomonidan kwp talab qilinadigan oziqa mahsuloti bwlishi bilan birga shifobaxsh wsimlik hisoblanadi.

Mosh em-xashak sifatida ham katta ahamiyatga ega. *Mosh – eng yaxshi siderat ekin hisoblanadi, u kwkat wǵit sifatida ishlatilganda tuproqda 70 c ga quruq modda twplanadi. Mosh dukkakli wsimlik sifatida tuproq unumdorligini*

*yaxshilovchi ekin bʻolib, almashlab ekish mahsuldorligini oshiradi, azotli wʻgitlarni tejaydi, gektaridan oqsil yigʻishni kwpaytirishga imkoniyat beradi.*

Respublikamizda mosh ekini 98icr maydonlarga va tomorqa erlarga ekilib xosil etishtirilmoqda.

Lekin 98icroe yillari mosh ʻysish davrida va saqlash paytida zararkunanda hashoratlar va kasalliklar bilan zararlanish xolati tobora ortmoqda.

. Bu hol hosilni nobud bwlishiga, mahsulotlarni iste`mol qilishga, uruqlari esa ekishga mutlaqo yaroqsiz bwlib qolishiga olib keladi.

Shuning uchun ham dukkakli don ekinlarini ilmiy asoslangan usul va vositalar bilan zararli organizmlardan himoya qilish ulardan olinadigan hosilni oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Dukkakli ekinlar entomofaunasini wrganishga oid tadqiqotlar dunyoning etakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va ta`lim muassasalarida amalga oshirilmoqda. Bu tadqiqotlarda ma`lum natijalarga erishilgan, jumladan, zararkunandalarning hayot cikllari va ekologiyasi wrganilgan, jumladan, K.K.Paliwal, S.R.Ramgiri, M.S.Lal (2000), S.L.Mitchell (2000), R.N.Thompson., S.A.Gibson (2000), S.O.Movsesyan (2003) va boshqalar.

Ushbu tadqiqotlar MDH mamlakatlarida ham wtkazilgan, natijalari keng miqyosda nashr qilingan. Dukkakli ekinlar entomofaunasi kwplab monografiyalarda umumlashtirilgan A.N.Chertkova, A.M.Petrov (1959, 1961), I.E.Bixovskaya – Pavlovskaya (1962), K.M. Rijikov (1973, 1974), Kennedi K. (1978) va Markaziy Osiyo respublikalarida bir qator zararkunandalar aniqlangan E.V. Gvozdev (1958), Agapov J.A. (1978), L.F. Borgarenko (1981, 1984, 1990).

Wzbekistonda dukkakli don ekinlari zararkunandalarini wrganish va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish borasida olimlar bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan (Efremova, 1959; Polevshikova, Sorokina, 1967; Alimjanov, 1968; Eremenko, 1976; Matkarimova, 2004; Mirmaqsudova, 2004; Boymurodova, Norboeva, 2005; Mirmaqsudova, Yakubova, 2010; Maxmudxodjaev, Sagdullaev 2012; Xolliev, 2018).

V.V.Yaxontov ishlarida kuzatishimiz mumkin. Bunda avtor 1 ta kana va 13 ta hasharot twgrisida ma`lumot keltirgan. Wrgimchakkanasimonlardan wrgimchakkana, hasharotlardan: tangachaqanotlilardan-6 ta tur, qattiqqanotlilardan-4, tengqanotli, yarim qattiqqanotli va ikki qanotlilardan 1 tadan tur twgrisida ma`lumot keltirgan.

V.N.Polevshikov va V.I.Sorokin [21] wz tadqiqotlari davomida moshda 24 ta tur zararkunanda mavjudligini qayd qilishgan. Bunda, moshning asosiy zararkunandalari 5 ta tur shira, 4 ta tur qandala, 2 ta tur uzunburun, 1 ta tur govaklovchi pashsha, 5 ta tur tunlam uchrashi qayd etilgan.

Wzbekistonda dukkakli don ekinlari zararkunandalarini wrganish va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish borasida olimlar bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan (Efremova, 1959; Polevshikova, Sorokina, 1967; Alimjanov, 1968; Eremenko, 1976; Matkarimova, 2004; Mirmaqsudova, 2004; Boymurodova, Norboeva, 2005; Mirmaqsudova, Yakubova, 2010; Maxmudxodjaev, Sagdullaev 2012; Xolliev, 2018).

Wzbekistonda dukkakli don ekinlar agrobiocenozi 90 dan ortiq zararkunanda turlari aniqlangan hamda zararli organizmlar ta'sirida hosilni 50-60% nobud bvlishi wrganilgan.

L.Mirmaqsudova va S.Yaqubovalar bergan ma'lumotlariga kwra, Toshkent viloyati sharoitida dukkakli don ekinlariga zarar keltirib yashovchi 15 dan ortiq xavfli zararkunandalar uchrab katta zarar keltirishi aniqlangan, bu zararkunandalar tunganak uzunburunlar, nwxat donxwri, tunlamlar, wrgimchakkana va dukkaklilar shirasi bwlib, olinadigan hosilning 40% dan kwprogi nobud bvlishi, zararlangan donlar ekishga yaroqsiz hamda unuvchanligi 50% ga kamayib ketishi aniqlangan (Xolliev, 2018). (V.N. Polevshikova 1965.,1967) ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar wz tadqiqotlarida Respublikamiz sharoitida dukkakli don ekinlari 100 dan ortiq turdagi zararkunandalar bilan zararlanishi mumkinligi va bu zararkunandalar ichida moshga zarar etkazishi jihatidan eng havfli zararkunda bu wrgimchakkanalar ekanligini ta'kidlaganlar. N.M.Maxmudxwjaev olib borgan tadqiqotlarida dukkakli don (mosh, nwxat, loviya) ekinlarida zararkunandalarning 20 turini kwrsatib wtishgan.

Qorakolpo'giston sharoitida shu kungacha dukkakli don ekinlarida uchraydigan va zarar keltiradigan zararkunanda xasharotlar, ularni turlari, eng asosiylari bioekologiyasi, rivojlanishi, tarqalishi, dala va omborxonada sharoitlarida ularga qarshi kurash olib borish muddatlari va usullarini ishlab chikish etarlicha wrganilmagan.

Dukkakli don ekiklaridan yukori hosil olishda ularni zararkunandalardan caqlab qolish, zamon talabiga javob beradigan atrof muhitga havfsiz chora tadbirlarni yashlab chikish hamda zararkunandalarga chidamli navlarni yaratish hozirgi kun talabidir.

Rejalashtirilgan vazifalarni bajarish uchun 2021-2022 yillar davomida Qoraqalpo'giston Respublikasi Nukus tumanida stacionar va marshrut tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunda dalalarda mavjud zararli hasharot va kasallik namunalari olib kelinib ularning turlari aniqlandi.

Ilmiy safarlar davomida wrganilayotgan ob'ektlarning tarqalish areali ham kuzatib borildi.

**Tadqiqot ob'ekti va uslublari.** Mosh biocenozi 90 dan ortiq zararkunandalari va entomofaglarining tur tarkibini aniqlash, tarqalishi va zararini hisoblash va namunalar yigishda K.E., Voronin., G.M., Yaroslavcev., S.G., Boinskaya., V.F. Paliy., B.P., Adashkevich., E.S., Shiyko., G.S., Posipanov., G.Ya., Bey-Bienko., S.M., Vol'kov., L.M., Kopaneva uslublaridan; galladan keyingi takroriy ekilgan moshning tuproq osti zararkunandalarning bioekologik xususiyatlarini wrganishda va hasharotlar fenologik jadvalini tuzishda K.K., Fasulati., A.N., Kojchanov uslublaridan foydalanildi.

Hasharotlarni yigish ishlari umum qabul qilingan entomologik usullar asosida olib borildi (Adashkevich, 1983; Xamraev, 1995, 2008). Hasharotlarni ushlab jarayonida an'anaviy usul entomologik tutqich twr, eksqauster va hasharotlar tuzogidan foydalanildi.

Dala ekinlaridan yigilgan zararkunandalar alohida idishlarga solinib, laboratoriya sharoitida boqilib, ularning tur tarkibi, rivojlanish davri wrganildi.

Yigilgan materiallarinng joy nomlari, vaqti, ildiz zararkunandalari soni, ularning fazalari, wsimlik turi qayd qilinib borildi. Tuxumlardan chiqqan xasharotlar qurtlari alohida kwpaytirilib, qaysi turga oidligi wrganilib, sistematik tahlil qilindi.

Yigilgan hasharotlar laboratoriyaga olib kelinib, qurtlar, imago hosil bwlgunga qadar boqilib, imagosi paxta matraslariga qwyiladi, keyinchalik ularning turi aniqlandi.

**Tahlil va natijalar.** 2021-2022 yillar davomida olib borilgan tajriba va kuzatishlar natijasida Qoraqalpogiston sharoitida dukkakli don ekinlarining zararkunandasi sifatida 2 sinf 7 turkumga mansub 22 ta tur tarqalganligi aniqlandi.

Dominant, katta zarar keltiruvchi turlardan kuzgi tunlam (*Agrotis segetum* Schiff), gwza tunlami (*Helicoverpa armigera* Hbn), oqqanot (*Tripl. Vaporariorum*), wrgrimchakkana (*Tetranychus urticae* Koch.) keng tarqalgan.

Bu zararkunandalar wsimlikning turli fazalarida (nihollar, barg va poyalar, generativ organlariga) zarar keltirib yashashi aniqlanib, bular ichida wrgrimchakkana, dukkaklilar shirasi, kuzgi tunlam, gwza va beda tunlamlari, tugunak uzunburun qwnqizlari (daqal tukli, maysa va olachipor nwxat uzunburun qwnqizlari), donxwrlar (loviya, nwxat va twrt dogli donxwr) va boshqalar kwp zarar keltirishi kuzatildi.

Zararkunandalarga qarshi kurashda ularning xilini, wsimlikning qay darajada zararlanganligini aniqlash, shuningdek, zararkunandaning biologik xususiyatlarini bilish katta ahamiyatga egadir.

**Xulosa.** Xulosa shuki, eng asosiy va butkul ysish davridan yigishtirib olganga qadar turlar sifatida barcha kuzatuv wtkazilgan joylarda tunlam turlari, oqqanot , wrgrimchakkana keng tarqalgan va katta iqtisodiy zarar etkazadigan zararkunanda sifatida wzini namoyon etdi.

Ayrim hasharotlar, ya`ni chigirtkalar, temirchaklar va shiralar faqat wz uchun qulay sharoit tugilgan joylardagina katta zarar etkazayotganligi aniqlandi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Kimsanbaev X.X., Norqulov A., Xolliev A. Nwxat agrobiocenozi zararkunandalarning sistematik tahlili // WZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI 4 (82) 2020
2. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B., Anorbaev A., Idrisov X. Mosh etishtirish. Nashriyot uyi "Tasvir" – 2021.
3. Xolliev A., Sa`dullaeva M., Xoliqova M. Moshni asosiy zararkunandalaridan himoya qilish // Agro kimyo himoya va osimliklar karantini, 2022, №2.

# **QORAQALPOĞISTON SHAROITIDA MOSH ÓSIMLIGI HOSILDORLIGI EKISH MUDDATI VA MINERAL ÓĞIT MEYORLARI BÓYICHA ÓZGARISHI**

*Sultanova Z.S., q.x.f.d., Purxanova A.J., doktorant*

## **Qoraqalpoğiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalar 101icroelem**

Mamlakatimiz xalqining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlashda oqsilga boy mahsulot etishtirishni kopaytirish asosiy vazifalarning biri hisoblanadi. Dukkakli ekinlar, shu jumladan mosh qimmatbaho don mahsuloti etishtirish bilan birga, tuproqni ildiz sistemasidagi azot tóplovchi bakteriyalar yordamida azot bilan boyitish hususiyatiga ega. Tez pisharligi sababli bu ekinni ikki bor etishtirib, hosil olish imkonini beradi. Mosh dukkakli ósimlik sifatida tuproq unumdorligini yaxshilovchi ekin hisoblanadi, almashlab ekish mahsuldorligini oshiradi, azotli uğutlarni tejaydi, gektaridan oqsil yigishni kópaytirishga imkoniyat beradi.

Súgoriladigan maydonlarda ekilgan boshqli don ekinlarini yigishtirib olingandan sóng, bóshagan maydonlarda moshning ertapishar navlarini takroriy ekin sifatida ekib, don etishtirishni kópaytirishdan iborat.

Hozirgi kunda yurtimizda donli, dukkakli ekinlarga katta e`tibor qaratilib, ekin maydonlari kengaytirilmoqda. Dehqonchilikni rivojlantirish va erdan unumli foydalanish uchun katta imkoniyatlar ochildi. Bugungi kunda eng asosiy muammolardan biri bu oqsil masalasi, yáni insoniyatning oqsilga bólgan talabini qondirish. Bu masalani echishda dukkakli – don ekinlaridan mosh ósimligining ahamiyati 101icr.

Respublika hukumati tomonidan oziq ovqat ekinlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga, xalqning talabini qanoatlandirishga katta e`tibor qaratilmoqda. Dukkakli don ekinlardan moshni etishtirish texnologiyasini ilmiy asoslash, respublikamiz tuproq iqlim sharoitlariga mos texnologiyani qóllanish va saqlash usullarini takomillashtirish, nobud qilmaslik actual masala hisoblanmoqta. Mosh oziq ovqat ekin bólishi bilan bir vaqtda siderat ósimlik bólib hisoblanadi. Qoraqalpoğiston Respublikasi sharoitida moshning Durдона navi ósimlikning ósib-rivojlanishi, ekish muddati va mineral ógitlar me`yorining tásiri urganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpoğiston Respublikasi sharoitida mosh (*Vigna radiata* (L.)Wilczek ósimligini ekish yigishtirish va dastlabki qayta ishlab chiqarishga muqobil variantini taqdim etish.

Tadqiqotning vazifasi. Mavzu maqsadidan kelib chiqib, ilmiy ish quyidagi vazifalarni óz ichiga oladi.

1. Moshning 101icroel tushunchasi, etishtirish texnologiyasi haqida adabiyot málumotlarini tuplash;

- Moshing morfologik xossalarini va navlarini órganish; Tadqiqot ob`ekti moshning “Durдона” va “Radost” navlari.

Qoraqalpoğiston Respublikasi shórlangan tuproq sharoitida moshning optimal ekish muddatlarini aniqlash, yigish va qayta ishlashni tashkil etish, Respublikamizda suvning tanqisligi sababli mosh ósimligini suvsizlikka chidamliligini aniqlashga erishiladi va ekishga tavsiya etiladi. Shu sababdan Respublikada suv tanqisligi sababli qishloq xójaligi 101icr zarar berayotgan

fermer, klaster xójaliklarini iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi. Shu bilan birga xalqimizni sifatli don mahsuloti bilan táminlash hisoblanadi.

Tajribada mosh navlarining ósishiga ekish muddatlari va me'yorí tásiri kuzatilib 1-ekish muddatida "Durдона" navi poya balandligi 34 sm, dukkaklar soni 31 ni tashkil qildi. 29 aprelda ekilganda esa: 38 sm, dukkaklar soni 49 bólib 1-muddatga nisbatan 4 smga ortganligi kuzatildi. Ikkinchi muddatda ekilganda poya balandligi 44 sm, bir ósimliktagi dukkak soni 61 ni tashkil qildi. Vegetaciya oxiriga kelib, ósimlik balandligi kópayishi kuzatildi va 91-100 sm ga ettik. Surimdan avval sochib gektariga 150 kg ammofos va sulfat berildi. "Radost" navida bu málumotlar birqancha pást bólishi kuzatildi. 1000 dona donning ógírligi mineral ógit me'yorí kópaishi bilan 10-14 grammga yuqori bóldi. "Radost" navida 1000 dona donning ógírligi "Durдона" naviga solishtirganda 12-15 grammga kam bólishi kuzatildi. Navlar oraligida farqni kuzatish shuni kórsatdiki, "Durдона" navo ósimliklari birqancha baquvvatroq, balandroq va dukkaklari chitnap ketmasligi bilan sifatlanadi. Natijada, órtacha hosildorligi bir gektar maydonga 21-24 ts/ga, "Radost" navida esa 15-17 ts/ga bóldi.

## **IJARA ÚY MÁSELELERI. SEBEPLER HÁM SHESHIM USHIN USINISLAR**

*Tumaeva A . assistent, Uzakova M. Student*

*Muhammed al-Xorezmiy atındađı TITU Nókis filiali*

Bul másele waqıtı –waqıtı menen dodalawlar orayına shıqsa da, tiykarınan jıl boyı aktuallıđın joyıtpaydı. Tek ǵana paytaxtda emes, bálkim basqa iri qalalarda da ijaraga turar jay tabıw máselesi ázelden mashqala bolıp kelgen. Ásirese endi ǵana oqıwdı baslaǵan studentler bunnan qattı qıynaladı. Búgingi kúnde tađı oqıw baslanıp, mińlaǵan studentler paytaxt hám basqa oraylarǵa oqıw ushın jetip keldi.

Ekonomikada sonday nızam hám talap bar eken, usınıs tuwıladı. Yaǵnıy hár qanday ónimge joqarı talap bar eken, onı usınıs etiwshiler hám bunıń artınan dáramat alıwshılar klası qáliplesiwi kerek. Lekin bir qarawda ápiwayı kóringen bul mashqala social másele aldında da ázzi bolıp qaldı.

Usılardan kelip shıqqan halda biz bul mashqala sheshimin sheshiw maqsetinde ijará úylerin tabıw ushın xalqımızǵa qolaylı hám sapalı mobil qosımsha jaratıwdı basladıq. Házirgi kúnde jaraǵa kvartira tabıw yaki ijarada birge jasaytın sherik tabıw qıyın.

Hárqıylı dereklerden:web-sayt,daǵaza hám gazetalardan baspana izlew júdá sharshatatuǵın jaǵday.

Eger siz qalaǵa jańadan kelgen bolsańız yaki qısqqa waqıtqa usı jerde jasawǵa tuwrı kelgen jaǵdayda usıǵan uqsas mashqalalar júz beriwı múmkin.

Qalaǵa jańadan kelgen adamlarda izertlew jumısları alıp barıldı hám basta kelgen waqıtta nezatlar qıyınshılıq tuwdırǵanı soraldı. Natıyjede:

- ❖ Ózge mádeniyat penen túsinispew – 28.7%
- ❖ Hawa rayı – 13.2%
- ❖ Baspana – 34.4 %
- ❖ Azıq awqat- 13.5 %

❖ Basqalar -10.2%

**Joqarıda atap ótilgen eń úlken mashqalalardıń biri: Baspana. Sheshimleri:**

- Kwartira izlew ushin ózgeshe orın jaratıw
- Sol “orın”dı ergonomik hám ańsat tabılatuǵın qılıw
- Birinshiden, bul model kórinisi prezentaciyashısı bolıwı kerek, keyin biz olardı qosımsha funksiyalar menen bayıtamız
- Sheshim: “Rentastic” mobil qosımshası adamlarǵa ijararǵa kwartira tabıw hám ijaranı bólisetin adamlardı tabıwǵa járdem beredi.

**Nege “Rentastic”?**

- ❖ Bul mobil qosımshanı isletiw basqa web-sayt, daǵazalardan ańsatıraq
- ❖ Paydalanıwshılardıǵa qolay dizayn hám funksiyalar
- ❖ úy/xana iyeleri menen tikkeley baylanıs
- ❖ real fotolar, paydalanıwshılardıń shın pikirleri
- ❖ bul mobil qosımshadan kóp paydalanatın tutınıwshılar ushin arnawlı xızmetler

Basqada detallar ámelge asırılmaqta...


Hárqıylı wazıypalar: ijararǵa alıwshı, paydalanıwshı


-“men bul jerde bolǵanman” bòlimi

-sáwbet bòlimi

-Bahalaw

**Paydalanıwshı mobil qosımshaǵa kiriwi yaki aǵza bolıwı kerek**





UWT 631.674.6

## LALMI ADIRLIK XUDUDLARDA BODOM VA XANDON PISTANI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.

*Xasanova O. A. – Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti gidrotexnika va meliorativ inshootlari kafedrasida katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada meva ko‘chatzorlari, meva bo‘glari barpo etish, shakl berish va butash turlari, yon bag‘irlarga daraxtlar qiyalikning ko‘ndalangiga qaratib gorizontallarda joylashtirilishi, bodom, xandon pista ko‘chatlarini sug‘oriladigan erlarda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan barqaror hosil, yuqori va sifatli hosil olish uchun sug‘orish hamda uning o‘ziga xos yuqori darajali agrotexnik tadbirlarni keng joriy qilish, sizot suvlar yuzaga joylashgan nam erlarda meva turlarining tanlab o‘tkazilishi, qurug‘ochilikning o‘ta xavfli bo‘lishi, u daryolar oqimini kamaytirishi, sizot suvlar darajasini pasaytirishi, natijada suv resurslarining etishmasligini keltirib chiqarishi, buning okibatida qishloq xo‘jalik ekinlari mahsuldorligi pasayishi masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** qiyalik, gorizontall, yon bag‘irlik, uchastka, payvantag, ko‘chat shoxlari, iqlim, harorat, atmosfera yog‘inlari, agrotexnika, melioratsiya, cho‘llashish, quruq subtropik, mo‘tadil mintaqada bodom, xandon pista

**Kirish.** To‘g‘ oldi va to‘g‘ etaklarida meva daraxtlari o‘stirishning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Birinchi navbatda meva navlarini to‘g‘ri tanlash kerak. Ushbu navlar qurug‘ochilikka mumkin qadar chidamli, tez pishar, vegetatsiya davri qisqa bwlishi lozim. To‘g‘ga baland chiqilgan sari o‘tkaziladigan navlar ham sovuqqa shuncha ko‘proq chidamli bo‘lishi kerak. To‘g‘ yon bag‘irliklarida, ya‘ni 350-400mm yog‘in yog‘adigan xududlarga qurug‘ochilikka juda chidamli navlardan bodom, pista va unabi o‘stirish mumkin. Ushbu mevalarni ekishda mumkin qadar tekis rel‘efli, jarlik va o‘pqonsiz, yirik toshsiz erlar tanlanishi maqsadga muvofiq bwladi. Bo‘g‘ barpo qilinadigan yon bag‘irlarning qiyaligi 15<sup>0</sup> gacha bo‘lishi yaxshi hisoblanadi. Bodom uchun esa 30-35<sup>0</sup> gacha qiyalik bo‘lgan tik yon bag‘irliklar ma‘qul.

Ko‘pchilik olimlarning fikricha (Korjinskiy, Lisnevskiy, Popov) O‘zbekiston haqiqatdan ham xandon pista mamlakati bo‘lgan ekan. Ammo to‘g‘ hududlarida ularning kesilib ketishi natijasida tabiiy tiklanishlar ro‘y bermagan.

Shuning uchun ham pistazorlarni suʼniy ravishda koʻpaytirish, urugʻlarini sepib keyinchalik ularni payvandlash yoʻli bilan tiklash mumkin. Ózbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning “2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaroriga koʻra Turkiyaning Gaziantep pistachilik ilmiy-tadqiqot instituti bilan birgalikda Samarqand viloyatida Ózbekiston– Turkiya pistachilik ilmiy markazi tashkil etilishi, Turkiyaning serhosil pista navlari kollekciyasi asosida milliy pista navlarini yaratish va ularning onalik koʻchatzorlarini tashkil etish hamda Nurobod tumanini pistachilikka ixtisoslashtirish boʻyicha qarordagi vazifalar aynan olib borilayotgan ishlarimizga dasturil amal boʻlib xizmat qiladi.

Xandon pistaning asosiy maydonlari toʻgʻ oldi va quruq toʻgʻ mintaqalarida yillik yoʻgʻingarchilik miqdori 300-350 mm ga teng boʻlgan xududlarda joylashgan.

Bu erlarda vegetaciya davri 210-220 kunni tashkil qiladi. Eng yuqori harorat 47-48 0 S ga teng. Xandon pistaning ildizlari 10-12 m chuqurlikgacha kirib boradi.

Ózbekiston Respublikasining “2013-2017 yillar davrida suʻgoriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Davlat dasturi”ga muvofiq 2013-2017 yillarda jami 25 000,0 gektar boʻgʻlar, uzumzorlar, sabzavot va poliz maydonlarida tomchilatib suʻgorishning zamonaviy usullarini joriy etildi

Shuni taʻkidlash lozimki, bizning respublikamizda sanoat plantაციyalarini barpo etishga uzoq vaqtlar davomida eʻtibor berilmagan. Sunʻiy pistazorlar oʻrmon tipida, yaʻni qalin kilib ekilib, barpo etilgan, ularni tashkil qilishda xandon pistaning biologik xususiyatlari hisobga olinmagan. Ekilgan koʻchatlarning qalinligi natijasida ular 18-20 yildan keyin hosilga kirgan va hosildorlik oʻta kam miqdorni tashkil qilgan.

## 1.-jadval

### Respublikamizda 2013-2017 yillarda suʻgorishning zamonaviy usullarni joriy etishning prognoz koʻrsatkichlari

Suʻgorishning joriy etiladigan muqobil usullari	Jami 2013-2017 yillarda, ga	Shu jumladan: yillar				
		2013	2014	2015	2016	2017
Boʻgʻlar, mevazorlar, sabzavot va poliz etishtirishda tomchilatib suʻgorish texnologiyasi	25000	3500	5000	5300	5500	5700

Tuproq ichidan va tomchilab suʻgorish usuli istiqbollidir. Bunday suʻgorishda suv tejaladi, yozgi ishlov berishlar istisno etiladi, hosildorlik 40 % ga oshadi, nishab erlarda tomchilatib suʻgorish samaralidir, bu boshqa ekinlar etishtirish uchun yaroqsiz erlarni qishloq xoʻjalik oborotiga kiritish imkonini beradi, shuningdek egatlab suʻgorishga nisbatan suvni 40-50 % ga tejaladi.

**Ma`lumki, har qanday bog` va bodom, xandon pista kwchatlarini sug`oriladigan erlarda qishloq xwjaligi ekinlaridan barqaror hosil, yuqori va sifatli hosil olish uchun sug`orish hamda uning o`ziga xos yuqori darajali agrotexnik tadbirlarni keng joriy qilish lozim.**

**Tajriba maydonida bodom, xandon pistani egatlab sug`orish va tomchilatib sug`orish, oziqlantirish va qator oralariga ishlov berish bilan bir qatorda quyidagi agrotexnik tadbirlar amalga oshirildi, (2-jadval).**

2-jadval.

**Bodom va xandon pistani etishtirishdagi agrotexnik tadbirlar**

T/r	Otkazilgan tadbirlar	Yillar bwyicha olib borilgan ishlar		
		2014 yil	2015 yil	2016 yil
1	Bodom va xandon pistani qator orasini haydash	17.11.2013;	11.12.2014;	7.12.2015;
2	Bodom va xandon pistani o`g`itlash	11.03.14; 15.04.14; 15.05.14;	13.03.15; 17.04.15; 18.05.15;	15.03.16; 21.04.16; 20.05.16;
3	Tomchilatib sug`orish shlanglarini yotqizish va	6.05.14;	7.05.15;	10.05.16;
4	Xashoratga qarshi preparati sepish	1.06.14; 20.06.14;	5.06.15; 18.06.15;	7.06.16; 24.06.16;
5	Sug`orish uchun jo`yaklar olish:	27.06.14; 23.07.14;	29.06.15; 28.07.15;	25.06.16; 29.07.16;
6	Sug`orish	29.06.14; 25.07.14;	30.06.15; 29.07.15;	27.06.16; 30.07.16;
7	Tomchilatib sug`orish tizimini yig`ib olish	5.09.14;	15.09.15;	10.09.16;
8	Bodom va xandon pistani hosilini yig`ishtirib olish	6.07.14; 20.07.14;	12.07.15; 25.07.15;	15.07.16; 27.07.16;

Bodom va xandon pista tajriba dalasida 2014-2016 yillardagi agrotexnik tadbirlar bo`yicha olingan ma`lumotlar jadvalda keltirilgan bo`lib, ushbu ma`lumotlarga ko`ra, 2013 yil 17 noyabrda, 2014 yil 11 dekabrda va 2015 yil 7 dekabrda 25-30 santimetr chuqurlikda har yili kuzgi er qatlami ag`darib haydaldi.

2014 yil 11 martdan 15 maygacha, 2015 yil 13 martdan 18 maygacha va 2016 yil 15 martdan 20 maygacha bodomni w`g`itlash ishlari olib borildi. Xashoratga qarshi preparati sepish ishlari 1 iyundan 20 iyungacha 2014 yil, 5 iyundan 18 iyungacha 2015 yil, hamda 7 iyundan 24 iyungacha 2016 yil, sug`orish uchun jo`yaklar olish ishlari 27 iyundan 23 iyulgacha 2014 yil, 29 iyundan 28 iyulgach 2015 yil, 27 iyundan 29 iyulgacha, 2016 yil, sug`orish ishlari 29 iyundan 25 iyulgacha 2014 yil, 30 iyundan 29 iyulgacha 2015 yil hamda 27 iyundan 30 iyulgacha 2016 yil, tomchilatib sug`orish tizimini yig`ib olish ishlari 5 sentyabr 2014 yil, 15 sentyabr 2015 yil, hamda 10 sentyabr 2016 yil, bodom va xandon pistani hosilini yig`ishtirish ishlari 6 iyuldan 20

iyulgacha 2014 yil, 12 iyuldan 25 iyulgacha 2015 yil, hamda 17 iyuldan 27 iyulgacha 2016 yillarda amalga oshirildi.

2015 yil tajriba dalasi tuprog'ini agrokimyoviy tahlil qilish uchun dala tajribalarini qo'yishdan oldin tuproqning 0-30 sm qatlamida gumus miqdori 0,526 % ni tashkil etgan bo'lsa, 30-50 sm qatlamida 0,426 % ga teng bo'lganligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich umumiy azot va fosfor miqdorlarida 0,042-0,026 % va 0,035-0,020 % ni tashkil etdi. Ko'zatu jarayoni nitratli azot tuproqni 0-30 sm qatlamida 5,10 mg/kg, 30-50 sm qatlamda esa 4,12 mg/kg ga teng bo'ldi, shunga mos holda harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy miqdorlari 14-12 mg/kg va 146-97 mg/kg dan iborat bo'lganligi kuzatildi. Bundan tajriba dalasi gumus bilan kam, harakatchan fosfor bilan kam, kaliy bilan o'rtacha ta'minlanganligi ma'lum bo'ldi. Shunga o'xshash ma'lumotlar 2014 va 2016 yillarda ham kuzatildi.

### 3-jadval. Bodom va xandon pista dalasi tuprog'ining agrokimyoviy tavsifi

Tuproq qatlami, sm	Ozuqa moddalari miqdori					
	yalpi miqdori, %			harakatchan shakli, mg/kg		
	Gumus	N	P	N-NO <sub>3</sub>	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O
1	2	3	4	5	6	7
<b>2014 yil</b>						
0-30	0,401	0,026	0,09	5,10	14	146
30-50	0,335	0,020	0,08	4,12	12	97
<b>2015 yil</b>						
0-30	0,526	0,035	0,20	7,21	34	160
30-50	0,426	0,025	0,17	6,19	24	120
<b>2016 yil</b>						
0-30	0,491	0,042	0,17	7,16	26	190
30-50	0,380	0,035	0,12	6,10	24	130

Plantaciyalar tashkil qilish uchun iloji boricha tekis erlar va qiyaligi 20° dan oshmagan qiyaliklar ajratilishi kerak.

Pistazorlarni parvarishlashda atmosfera yo'ginlarini ko'proq tuproqda to'plashga va undan wsuv davrida samarali foydalanishga qaratilishi lozim.

Buning uchun tuproq birmuncha chuqurroq yumshatilishi, begona o'tlardan toza bo'lishi kerak. Lalmi erlardagi pistazorlarni qator oralarini begona o'tlardan tozalash bilan birga 3-4 marta kul'tivaciya o'tkazish zarur. Tuproqqa ishlov berish butun o'suv davri davomida olib boriladi. Kul'tivaciya muddati yo'gingarchilik va begona o't bosishiga bogliq bwladi. Ekinlarni parvarishi ob- havo sharoitiga qarab aprel oyidan boshlanadi. 1- yili kul'tivaciya ko'proq o'tkaziladi, keyingi yillarda biroz kamaytiriladi. Yaxshi ishlov berilib, yo'ginlar davri tugagandan so'ng ancha paytgacha tuproqqa ishlov berilmasdan yumshoq holatda saqlanadi.

Bu davr iyul oyining oxirlarida oktyabr – noyabrgacha davom etadi. Bu davrda tuproqqa ishlov berish tuproqni qurishi va chang holatga o'tishiga sabab bo'ladi.

Tuproqqa ishlov berishda yumshatish chuqurligi 18-20 sm dan kam bo'lmashligi lozim. Kuzda qatorlararo chuqur ag'darmasdan haydash qish bahorgi davrda atmosfera yo'ginlaridan maksimal darajada nam to'plashga yordam beradi.

Shuning uchun Respublikaning ko'pchilik rayonlarida o'simliklarning rivojlanishi butunlay to'xtamaydi. O'zbekistonning iqlimi ham sayyoramiz iqlimiga o'xshab davriy o'zgarib turadi. Er shari iqlimi o'zgarishining asosiy belgilovchisi haroratdir.

**Xulosa wrnida** Qurgoqchilik bizning sharoitda o'ta xavfli bo'lib, u daryolar oqimini kamaytiradi, sizot suvlar darajasini pasaytiradi, natijada suv resurslarining etishmasligini keltirib chiqaradi. Buning natijasida aholining suv bilan ta'minlanishi yomonlashadi, qishloq xo'jalik ekinlari mahsuldorligi pasayadi, gidroelektroenergiya ishlab chiqarishi kamayadi.

Global haroratning ortishi birinchi navbatda mamlakatning hozirda suv etishmasligidan qiynalayotgan hududlarini juda og'ir ahvolga solib qo'yadi.

Antropogen ta'sir natijasida mamlakatning faqatgina qurgoqchilik zonalarinigina emas, balki tog'li rayonlarning ham cho'llashuvi ro'y beradi. 2020-2030 yillarga borib, O'zbekiston hududidagi quruq subtropik va mo'tadil mintaqa wrtasida chegara 2<sup>0</sup> S kenglik shimolga siljiydi, ekstremal harorat ko'tariladi, yo'ginlar miqdori normadan 15-20 % wzgaradi.

Bu esa wz navbatida sovuqsiz davrlarni ko'paytiradi, o'simliklarning vegetaciya davrini uzaytiradi. Ijobiy oqibatlar bilan birgalikda qishloq xo'jalik ekinlari hosilini kamayishiga olib keluvchi xavfli ob-havo hodisalarning ehtimoli kutilmoqda.

Xususan yozgi haroratning ortishi kuzgi ozuqa zaxiralarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:**

1. Xandon pista plantaciyalarini tog' oldi va lalmi erlarga, yillik yo'gingarchilik miqdori 300-350 mm dan kam bo'lmagan xudadlarda barpo etish maqsadga muvofiqdir.

2. Pista plantaciyalarini barpo etishda albatta shu hudud uchun tavsiya etilgan shakl va navlardan foydalanish yuqori samara beradi. Aks holda qilingan mehnat zoya ketishi mumkin. Chunki, pistazorlar barpo qilingandan keyin 3-4 yilda hosilga kiradi.

3. Pista plantaciyalarini barpo etishda shakl va navlarning o'sish va rivojlanish xususiyatlariga ham e'tibor berish zarur. Chunki, erta bahorgi sovuqlar pista gullagan davrga to'g'ri kelib qolsa, shu yili hosil kam bwladi yoki umuman hosil bo'lmaydi.

4. Pistazorlarning o'sish va rivojlanish xususiyatlari o'rganilgandan keyin, albatta uning hosildorligini aniqlash zarur. Chunki pista daraxtini asosiy foyda beradigan tomoni uning hosildorligidir.

5. Pistazorlarni parvarishlash agrotexnikasida asosiy e'tiborni tuproqda nam to'plash va undan samarali foydalanishga qaratish lozim. Buning

uchun bahor va yoz mavsumida pistazorlar orasini kul'tivatorlar bilan tez – tez ishlab turish zarur.

### **Adabiyotlar**


1. Ostonaqulov T.E., S.X.Narzieva Mevachilik asoslari. Qishloq xwjalik oliy wquv yurtlari talabalari uchun wquv qwllanma T. 2010.
2. Ikramov R.K. Metodiki raschetnogo obosnovaniya orositel`nix norm i rejima orosheniya sel`xoz. Kul`tur. //Rejima orosheniya i texnika monitoringa. Proekt: «Upravlenie pochvennimi i vodnimi resursami dlya sozdaniya ustoychivix sel`skoxozyaystvennix sistem v Central`noy Azii». Taraz, 2002. S. 9-30.
3. Xasanova O.A. “The need for portable pumps to irrigate gardens with snow and rainwater in the foothills” Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385
4. Xasanova O. A “Rol` zasuxi i antropogennix faktorov v organizacii orexovix sadov v gornix rayonax» Biologicheskaya jurnal № 8 (19), avgust, 2020 g.
5. O.Xasanova A.Xodjimatov, K.Xolmatova “The role of drought and anthropogenic factors in the organization of pistachio orchards in mountainous areas” EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5 | Issue: 6 | June 2020

## **RO-1 MARKALI ANTIPIRENLAR BILAN MODIFIKACIYA LANGAN YO`GUCH MATERIALLARINING TERMIK BARQARORLIGINI TADQIQ ETISH**

*Xolboeva A. I., Yaqubova D. T., Xolmurodova S.F., Narmanova F.S.  
Uzbekistan respublikasi Termez davlat universiteti*

Bugungi kunda dunyoda yo`guch qurilish materiallari bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo`lgan qimmatli kompleks xossalarga ega noyob tabiiy materiallar bo`lib, ular asosidagi noyob ob`ektlarni yong`indan hamda zararkunanda hasharotlar ta`siridan himoya qilish zarurati ortib bormoqda.

Oltinugurt saqlagan birikmalar RO-1, RO-2, DGT-1, DGT-2 va DGT-3 markali antipirenlar bilan ishlov berilgan yo`guch materiallarining termik barqarorligi tadqiq etildi. Ushbu jarayon haroratga bog`liq ravishda RO-1 bilan ishlov berilgan yo`guch materiallarni vazn yo`qotish kinetikasi 1-rasmda keltirilgan. Kwrib chiqilayotgan harorat oralig`ida vazn yo`qotish turli jarayonlar bilan bog`liq: oligomerni oksidlanishi, uchuvchi moddalar chiqishi bilan parchalanish va boshqalar. TGA egri chizig`ida harorat ko`tarilishi bilan RO-1 markali antipiren bilan ishlov berilgan yo`guch materiallarni vazn yo`qotishi 200°S dan 300°S haroratda asosiy qismi destruksiyanlanishi ko`zatildi. Ushbu kompozit 120°S haroratda 0,5 mg massa yo`qotdi va ushbu ko`rsatkich umumiy massaning 12,6% ni tashkil etdi. 300°S haroratda 2,19 mg vazn yo`qotganligi rasmdan ko`rinib turibdi, bu esa 53,1% ni tashkil qiladi. Termik jarayonlarni kuzatib borishimiz natijasida asosiy vazn yo`qotish sodir bo`lgan haroratlarda ekzotermik ta`sir ham aniqlandi ya`ni DTA 408,4°S va 600°S haroratlarda ikkita issiqlik chiqishi bilan boradigan holatni tadqiq qilindi.



**1-rasm. RO-1 markali antipiren bilan ishlov berilgan yoʻgʻoch materiallarni termik barqarorligi**

Termik jarayonlarni kuzatib borishimiz natijasida ekzotermik taʼsir ham aniqlandi, yaʼni DTA 356,4°S 382°S, 400°S va 480°S haroratlarda toʻrtta issiqlik chiqishi bilan boradigan holat tadqiq qilindi.

**1-jadval  
Laboratoriya sharoitida RO-1, markali oligomer antipiren-antiseptiklar bilan ishlov berilgan yoʻgʻoch namunalarni ksilofag-hasharotlarga (termitlar misolida) nisbatan biologik samaradorligi**

Naʼmuna koncentraci yasi, %.	Kunlar hisobida wlgan termitlar soni (%)						Umumiy termit- lar soni	Biologik samara- dorlik,(%)
	3 kun	5 kun	10 kun	15 kun	20 kun	25 kun		
RO-1 / 10	32±2	52±3	64±3	68±4	76±4	80±4	25,0±1,0	80±4
RO-1 / 15	40±1	56±2	72±3	76±3	84±3	88±2	25,0±1,0	88±2
RO-1 / 20	40±1	56±2	72±3	76±3	84±2	88±2	25,0±1,0	88±2

**Izoh** *⊗*nazoratga nisbatan twgrililik  $n=5$ ,  $M±m:P<0,01: <0,005$ )

Bundan tashqari maxsus tayyorlangan kungaboqar poyasini yumshoqligini saqlab turish uchun doimiy namlantirib turildi. Tajriba sinov jarayonida antipiren-antiseptiklar bilan ishlov berilmagan filʼtr qoʻgozi va kungaboqar poyasi bilan alohida holatda termitlar oziqlantirilib borildi. Tajiribani sinov natijalariga koʻra termitlar 25 kunga qadar asosiy qismi nobud boʻldi. Bu vaqtda antipiren-antiseptiklar bilan ishlov berilmagan ozuqa berilgan nazoratdagi termitlar faol ekanligi aniqlandi.

RO-1 markali oligomer antipiren-antiseptiklarni 10-20 % suvli eritmasi shimdirilgan kungaboqar poyasi termitlarga ozuqa sifatida qoʻllanilganda 3-10 kunlarda oʻlgan termitlar soni oʻrtacha (10 % eritma) 32% - 64%, (15 %-20 % eritma) 40-72% koʻtarildi, swngra 15-25 kunlarda esa (10% eritma) 68% - 80%, (15-20% eritmalar) 76-88% ni tashkil etdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolboeva A.I., Turaev X.X., Nurqulov F.N. Synthesis of organic compounds containing nitrogen and sulfur on the basis of elemental sulfur and study of their physicochemical properties // International Journal of Mechanical Engineering, 2021.(Scopus) ISSN: 0974-5823.

2. Xolboeva A.I., Turaev X.X., Jabborova X.A., Nazarov Yu.E. Issledovanie termookislitel'noy destrukcii na osnove polisul'fidnix oligomerov(PSO) // Mahalliy xomashyolar va ikkilamchi resurslar asosidagi innovacion texnologiyalar Respublika ilmiy-texnik anjumani 19-20 aprel 2021y 240 b.

3. A.I.Xolboeva, X.X.Turaev, A.E.Djalilov, F.N.Nurqulov, X.X.Qulbasheva, U.U.Ruziev. Tarkibida azot, oltingugurt saqlagan organik birikmalarning elementar oltingugurt asosidagi sintezi // Kompleks birikmalar kimyosining dolzarb muammolari Respublika ilmiy-amaliy konferenciya 14-15 sentyabr` 2021y 89 b.

## ISSIQXONALARDA BODRING YETISTIRISDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR VA UNGA KURASH CHORALARI

*Xudoyan O. A., Erejepova G.*

### *Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

Fuzarioz so'lish ( Fol ). Belgilari: Zararlangan yosh nihollarda urug'palla egilib qoladi va tezda sarg'ayadi. Ba'zan nihollarning chirishi kuzatiladi. Mazkur holatda ancha qari to'qimalar jigarrang tusga kiradi, o'simlik so'liydi va nobud bo'ladi. Katta yoshli o'simliklarda ko'pincha dastlab bitta shoxi so'liydi. Katta yoshli o'simliklarda ko'pincha dastlab bitta shoxi so'liydi. So'ngra butun o'simlikda solishning rivojlanib borishi va pirovard natijada uning nobud bo'lishi kuzatiladi. Urug'pallaosti tirsakda poyaning xalqalanishi va o'simlikning o'sishidan to'xtashi ham kuzatilishi mumkin.

Kasallikning rivojlanish sharoitlari. Fuzarioz so'lishni qo'zg'atuvchi zamburug'ning hayot ekanligi tuproqda bir necha yil mobaynida saqlanishi mumkin. Zamburug' sporalarning bir daladan boshqasiga tarqalishi zararlangan tuproq va o'simlik qoldiqlarining qishloq xo'jalik mashinalari vositasida olib o'tishi, shuningdek tuproq zararlari va sug'orish suvlari tomchilarning shamol bilan o'tishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Zamburug' o'simlikka ildizi orqali kiradi va tuproqning harorati yetarlicha yuqori bo'lganda tez rivojlanadi.

Kurash choralari: Chidamli navlarni ekish tavsiya etiladi. Yetishtirishni kasallik bilan zararlanmagan maydonchalarda amalga oshirish lozim. Tuproqning pH muhitini 6,5 darajaga keltirish va nitrat azot berish zararlangan dalalarda kasallikning rivojlanishini to'xtatish mumkin. Tuproqni bug' bilan sterillovchi uskunalalar bilan zamburug' sporalarning yangi maydonlarga tarqalishi bartaraf etish lozim.

Peronosporioz ( Soxta un shudring Pcu ). Belgilari: Zararlangan barglarda dastlab ola-chiporlik , so'ngra esa och sariq dog'lar paydo bo'ladi. Mazkur doglar uchburchak simon shaklga ega bo'ladi va va bargning mayda tomirlari bilan chegaralanadi. Vaqt o'tib bu dog'lar yoyilib ketadi va zararlangan maydonlarga

aylanadi, ularning rangi sarg'ish-jigarrang dan jigarranggacha ozgaradi. Shundan so'ng tez orada bargning ostki yuzasida zamburug' ning oqdan kulranggacha bo'lgan yupqa tukli g'ubori hosil bo'ladi. Namlik yuqori bo'lgan davrlarda mazkur gubor kulrang yoki binafsha rang tus olishi mumkin. Zararlangan 112icroel nobut bo'ladi, ammo tik holatda qoladi, barg yapronning chetlari esa ichkariga qayriladi. Kasallik kuchli avj olganda defoliyasiya ( barcha barglarning to'kilishi), o'simlikning o'sishidan to'xtashi va mevalarning rivojlanmay qolishi kuzatiladi.

